

SHOIRA ZULFIYA BADIY OLAMI

Dadayeva Dildora Ixtiyor qizi

Toshkent tibbiyot akademiyasi 3-bosqich talabasi

Anotatsiya. *Shoira Zulfiyaning she'rlari iliq lirizm bilan sug'orilgan. Shoira she'rlarida vafo va sadoqatni insoniylikning bosh mezonini darajasiga ko'tardiki, usiz haqiqiy komil insonni tasavvur etish qiyin Shoira Zulfiya she'rlaridagi lirik qahramon – ona, vafodor yor. Shoira Zulfiya lirik qahramonining muhabbati cheksiz, tuganmas. She'riyatda tugallik tushunchasi nisbiydir.*

Anotation. *The poems of the poet Zulfia were watered with warm lyricism. The poet elevated fidelity and devotion in his poems to the level of the main criterion of humanity, without which it is difficult to imagine a real perfect person a lyrical hero in the poems of the poet Zulfia-mother, a devoted lover. The love of the lyrical hero of the poet Zulfia is endless, inexhaustible. In poetry, the concept of completeness is relative.*

Аннотация. *Стихи поэтессы Зульфийи проникнуты теплым лиризмом. В своих стихах поэтесса возвысила верность и верность до уровня главного критерия человечности, без которого трудно представить настоящего совершенного человека лирический герой стихов поэтессы Зульфийи – мать, верный муж. Поэтесса Зульфийа любовь лирического героя бесконечна, неисчерпаема. Понятие завершенности в поэзии относительное.*

Kalit so'zlar. *Qalamkash, shoir yuragi, she'riyat, serqirra, da'fatan, gilamzor, sadoqat, fazilat, yurtim xaritasi, poetik olam, baxtiyor onlar, turmush, tashvish, tomchi, lirika.*

Keywords. *Penciler, poet heart, poetry, surrogate, da'fatan, rugs, loyalty, virtue, map of my country, poetic world, happy moments, marriage, anxiety, drop, lyric.*

Ключевые слова. *Карандаш, сердце поэта, поэзия, пышность, напористость, ковер, верность, добродетель, карта моей страны, поэтический мир, счастливые они, брак, беспокойство, капля, лирика.*

She'r shoir qalbining tarjimoni, uning orombaxshidir. Inson yuragidan kechuvchi turli g'alayonlar, uning turmush tashvishlariga xos ayrim chizgilar ijodida gavgaldanishi ayni muqarrar. Chunki shoir dilidagini qog'ozga tushiradi, qalamga yukinadi. She'r hamisha darddir. Kamdan kam hollarda shodlikdan she'r paydo bo'ladi. She'rda inson kechinmalari, orzulari, intilishlari, armonlari aks etadi. Tomchida olam aks etganidek, yuksak she'riyatning qudratini ko'rish, inson qalbi mudom she'rga talpinishining sabablarini mushohada etmoqlik uchun shoira Zulfiya she'rlariga qayta-qayta murojaat qilamiz. Zulfiya qalamkash do'stlarining she'riyat haqidagi bu so'zlarini sharhlab, "haqiqatdan ham, jasorat yo'q joyda she'riyatni payqamaydilar ham, qudrat yo'q joyda esa she'riyat ham yo'qdir. She'riyatning ana shu fazilatlari o'zaro qattiq aloqador, o'zaro bog'langan, bir-birini taqozo etadi", – deydi. U she'riyatning mangu joziba qudratini ana shu uch narsada: soflilik, qudrat

va jasoratda ko'radi". Zulfiya e'tiroficha, lirika shoirdan juda katta samimiyat va mehnatni talab qiladi. Har bir she'riy asarning vujudga kelishida yurakning ishtiroki nihoyatda faol bo'lib, u – shoir yuragi – asarning har bir hujayrasiga qon va jon bag'ishlab turadi. Shu bilan birga bu yurak, ayni paytda, ko'pchilikning orzu va umidlarini, dard va iztiroblarini, kelajakka ishonchni ham ifodalay olishi, ular bilan payvasta bo'la olishi talab etiladi. Shundagina hayotiy tuyg'ular zamirida voqe bo'lgan, chuqur fikr va samimiy hissiyotlar, hayotiy tajriba va keng dunyoqarash evaziga yaratilgan she'r kitobxonning qalbidan joy oladi, unga ruhiy va estetik ozuqa manbai bo'la oladi, ilhom bag'ishlaydi.

Zulfiya she'riyati o'zga bir dunyo. Serqirra, serjilo, rango-rang olam. Uning eshiklarini ochib, kirib boraversangiz, gullar bag'rida uyg'ongan bir gilamzor, g'am shamollari kira olmagan bir kengliklar, nurlarga chayilgan mo'jizaviy bir olam sizni bag'riga olayotganday bo'ladi. Bundan armonning ko'ngli sitilib ketadi, ko'ngil tinchiydi, qalbingiz orom oladi". Shuni aytib o'tish joizki, Zulfiyaning har bir she'ri – o'zgacha tarix. Shoiraning she'riyatini o'qigan inson, har bir she'rda Zulfiyani qalam tebratishga sabab bo'lgan nozik dil torlarini anglab oladi. Butun hayoti davomida uchragan yorug', muhabbatga limmo-lim, quvonch-u shodliklarga to'la kunlarni, ayanchli, g'am-anduh, ayriliq damlarni hissiyotlarga qo'shib qog'ozga tushirgan satrlari shoiraning turmushi, hayoti qanday kechganidan dalolat beradi. Zulfiya she'rlarining qanday ro'yobga kelishi ham, ularning yetilish jarayoni ham, qayta ishlanishi ham boshqa ijodkorlar tajribasiga o'xshamaydi. Uning ijodida "daf'atan", "bir onda", "bir zarb bilan" yozilgan she'rlar yo'q, balki ular uzoq vaqt yurakda va ongda obdan pishib yetilgach to'kiladi. 60 Shoira "Mening hayotimda o'ta baxtiyor kunlar ham, musibatli onlar ham ko'p bo'ldi. Biroq hatto eng og'ir mushkul daqiqalarda ham o'zimning dard-u hasratlarimni she'rga tushirar ekanman, meni hayotga muhabbatning g'olib qudrati hech qachon tark etmadi. Mening shaxsiy hayotim xalq hayotining bir zarrasidir. Men xuddi shunda ham grajdanlikning ifodasini ko'raman", – deb aytar ekan, uning mardona she'riyatiga, grajdanlikning yuksakligiga qoyil qolamiz. H.Olimjon vafotidan bir yil o'tgandan keyin yozilgan "Bahor keldi seni so'roqlab" turkumidagi she'rlar qudratini chuqurroq tushunasiz. Shoiradagi umidning kuchi – qudratiga qoyil qolasiz. Bu iqronomalar hayotiy falsafa shoira she'riyatining kaliti vazifasini o'taydi. Bu kalit shoira poetik olamining mohiyatini to'la anglashning imkoniyatini tug'diradi. "Yurtim xaritasi - mening yuragim" suhbatida shoira yozadi: "Ezgulik va yovuzlikning kurashi har qanday she'riyatning mohiyatini tashkil qiladi. Men hayotim, undagi hamma yaxshi narsalarni tasdiqlash orqali yomonlik bilan kurashaman. Hamma kitoblarimda bunga misol bor. Hayotda qayg'u ko'p, ammo men uni yengish, shu jumladan, o'z-o'zini yengish jasorati to'g'risida yozaman. Men hayotning noxush tomonlari to'g'risida kinoya bilan, hajv bilan gapirmayman. Og'riq va alam bilan, ezgu istak bilan gapiraman, ona yerimizdagi har bir odam baxtli bo'lishini, hayot go'zal, har birimizning ahilligimiz ibratli bo'lishini xohlayman". Zulfiya o'z qalbining tubsizliklariga nazar tashlay olgan edi. Shu tariqa o'zbek ayoliga xos bo'lgan qalb kechinmalarini nihoyatda ehtiyotkorlik bilan, mohirona yorita olgandi. Ayol qalbi dunyosining sirlarini xo'b sirli qilib anglata bilgandi. Shoiramiz dunyo she'riyati ehromiga

qalbining musaffo, pokiza, tiniq, shaffof ziyosi bilan esh bo'lgandi. U hayotda ham doimo shunday pokiza ziyo taratib yashadi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Quronov D, Mamajonov Z. va b. Adabiyotshunoslik lug'ati. – Toshkent: “Akademnashr”, 2013
2. Zulfiya. Quyoshli qalam. – Toshkent: “Kamalak”, 1995.
3. Zulfiya. Adabiy o'ylar. – Toshkent: “Fan”, 1985